

O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI VA ISLOM BANKCHILIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Baxtiyorov Xojiakbar Shuxrat o‘gli

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

xojiakbarbaxtiyorov1102@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida Islomiy moliyani rivojlantirish, investorlarni jalb qilish xususida gap yuritiladi. Shuningdek, maqolada islomiy banklar salmog‘ini oshirish natijasida, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni oshirish va mikromoliyalash xizmatlari haqidagi fikrlar ham keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Investitsiya Bank Tijorat Iqtisodiyot Divident Risk Zakot Inflatsiya Pul Musulmonlar Tadbirkorlik

Barchamizga ma‘lumki, mamlakatning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni bevosita uning iqtisodiyoti va siyosatining qanday yuritishiga bog‘liq. Mamlakatning taraqqiyoti va o‘zining boshqa davlatlar oldida mustaqil bo‘lishi o‘z kuchiga ega bo‘lishi uning ma‘naviy va iqtisodiy bilimlari bilan chambarchas bog‘langan. Mamlakatning muhim moliyaviy bo‘g‘inini esa uning bank tizimi tashkil qiladi. Banklarning iqtisodiyotdagi o‘rni deganda esa ularning tashkil topish manbalari, rivojlanishi, qanday vazifalarni amalga oshirishini tushunish mumkin. Banklar mulkiy jihatdan qanday tuzilganiga qaramasdan, ularning barchasi o‘z oldiga eng birinchi navbatda foyda olishni maqsad qilib qo‘yadi. Chunki iqtisodiyotda qanday soha bo‘lishidan qat‘iy nazar, maqsadlar foyda ko‘rishga qaratilgan bo‘ladi. Ular asosan tijorat banklari va davlat banklariga bo‘linadi. O‘zbekiston hududida davlat banki vazifasini Markaziy bank bajaradi. Uning asosiy vazifasi pul emissiya qilish, tijorat banklariga kreditlar ajratish, mamlakatda inflatsiya darajasini boshqarish va qayta moliyalash stavkasi orqali chetdan investorlarni jalb qilishdir. Tijorat banklari esa aholi qo‘lidagi ortiqcha pul mablag‘larini omonatga olish va foizlar asosida aholiga kreditlar berish vazifasini bajaradi. Hozirgi kunda banklar faoliyati bo‘yicha Islom taraqqiyot bani jahon hamjamiyatida yaxshi e‘tirof etilmoqda. Qayd etish zarurki, Islom rivojlantirish banki 1973-yil Jiddada Islom konferensiyasi tashkilotining a‘zo-davlatlari deklaratsiyasi imzolanganidan keyin 1974-yilda tashkil qilindi, o‘z

faoliyatini rasmiy ravishda 1975-yil 20-oktyabrdan boshlagan, hozirgi kunga kelib ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyatini olib bormoqda.¹

Hozirgi kunda O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Jahon hamjamiyatiga qaraydigan bo‘lsak, hozirda ko‘plab rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari va davlat banklarida Islomiy darcha ochilgan. Vaholangki, ularda aholining aksariyat qismi musulmonlar emas lekin, bu mamlakatlarda bu turdagi banklar aholi va davlat tomonidan yaxshi e’tirof etiladi. Islomiy darcha deganda bu mamlakatda ham tijorat ham Islomiy shariat qonunlariga asoslangan, foizlarda hisob kitoblarga tayanmagan banklarni tushunish mumkin. Bunda ikki turdagi bank o‘z faoliyatlarini bir biridan mustaqil holda amalga oshiradi. Hozirgi kunda statistikaga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 95% qismini Musulmonlar tashkil qiladi lekin bu yerda Islom banklari faoliyatini yaxshi deb bo‘lmaydi sababi, ko‘plab tijorat banklarida Islomiy darchalar ochilmagan va aholida bu bank turlari haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Uning yana bir afzal tomonlaridan biri bu, Islom moliyasi iste’molchilar musulmon yoki boshqa dinga e’tiqod qilishlaridan qat’iy nazar birdek xizmat ko‘rsatadi. Bugungi kunda bank islom dunyosidan tashqari mamlakatlarda ham faoliyatini olib borib ularga ham imkoniyatlar yaratmoqda. Misol uchun, Singapurda aholining atigi 5% qismini musulmonlar tashkil etadi, lekin mamlakatda Islom moliyasi rivojlangan. Malaysiada esa bank iste’molchilarining 70% ini boshqa din vakillari tashkil etadi. Ularning bu bank turini tanlaganligining asosiy sabablaridan biri, bu bank hech qanday hisob kitoblarni foiz ko‘rinishida amalga oshirmaydi. Barcha hisob kitoblar Islomiy shariat qonunlariga asosan amalga oshiradi. Bank asosan kreditlarini Investitsiya ko‘rinishida beradi, ya’ni investitsiya olgan korxonaga foyda ko‘radigan bo‘lsa, foydaning shartnomaga keltirilgan qismi bank va tadbirkor o‘rtasida taqsimlanadi va har qanday biznes faoliyati sherikchilikda amalga oshiriladi. Bankning boshqa tijorat banklaridan farqi shundaki, u oldindan kafolatlanmagan tadbirkorning oladigan foydasiga qarab, daromad aniqlanadi, foizlar asosida emas. Agar tadbirkorlik faoliyati zararga ishlaydigan bo‘lsa, masalan har xil noxush voqealar, tabiiy ofatlar, qurg‘oqchilik va shu kabi ko‘ngilsizliklar yuzaga kelsa, kredit olgan tadbirkordan hech qanday pul talab qilinmaydi, ko‘rilgan zarar esa bank va iste’molchi o‘rtasida taqsimlanadi yoki sug‘urta kompaniyalari tomonidan qoplab beriladi. Tijorat banklarida esa zarar ko‘rilgan taqdirda ham kredit miqdori foizi bilan bankka qaytarilishi lozim bo‘ladi. Bu kabi sharoit ham tadbirkorlarga yengillik beradi. Bu turdagi banklarda omonatga pul qo‘yish funksiyasi ham mavjud ammo bu tijorat banklariga nisbatan qisman farq qiladi. Omonatga pul qo‘ymoqchi bo‘lgan shaxs

¹ Vikipediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_Taraqiyot_Banki

omonat pulini o'zi hohlagan kompaniyasiga investitsiya tariqasida bank orqali kirgizadi va foydani dividend tariqasida oladi. Moliyalashtirishning islomiy modellaridan yana biri bu riskni taqsimlashdur. Agar biznesda foyda ko'rilmasa bank ham, mijoz ham foyda ko'rmaydi. Foyda ko'rsa, u omonatchi va tadbirkor o'rtasida sarmoyaga mutanosib taqsimlanadi. Bunda tijorat banklaridan farqli jihati shundaki, qancha miqdorda foyda ko'rish omonatga pul qo'ygan kunning o'zida aniq bo'ladi.

O'zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a'zo bo'ldi va shu kungacha jami 2.5 milliard dollardan ortiq 30 ta yirik investitsiya loyihasi maqullanib. Bu loyihalar doirasida aholi maktablar, uy-joylar, avtomobil va ichki yo'llari, ichimlik suvlari va sog'liqni saqlash muassasalari zamonaviy texnikalar bilan ta'minlangan.¹ Yana bir e'tiborli jihati shundaki, 2021-yil 2-sentyabr sanasida poytaxtimizda Islom taraqqiyot bankining 46 yilligi nishonlandi va bir qator investitsiya loyihalari ko'rib chiqildi va bu forumni onlayn va oflayn tarzda 4.5 mingga yaqin delegantlar kuzatdi. Uchrashuvda ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish istiqbollari alohida e'tibor qaratildi.

Bu borada 2022-2025-yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik dasturini tez fursatda qabul qilish va amalga oshirish hamda Toshkent shahrida Bankning to'laqonli vakolatxonasini ishga tushirish, moliyalashtirish instrumentlari samaradorligini oshirish muhim ekani ta'kidlandi.² Bu ham kelgusida mamlakatimizdagi tijorat banklarida islomiy darchalarning ochilishiga keng yo'l ochib beradi.

Hozirgi davrda, ITBga a'zo mamlakatlarda yer shari aholisining 19 foizi yashaydi. Yer yuzidagi quruqlik maydonining 25 foizi, qishloq xo'jaligi yer maydaonlarining 29 foizi, qayta tiklanadigan suv resurslarining 13,5 foizi ushbu mamlakatlarning hissasiga to'g'ri keladi. Biroq, Birlashgan millatlar tashkilotining metodologiyasi bo'yicha mazkur mamlakatlarning qariyb yarmisi (26 ta davlat) dunyoning o'ta qashshoq mamlakatlari hisoblanadi va bu kabi hollarni oldini olish maqsadida bank ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, tashkil topgan vaqtdan boshlab ITB moliyalashtirgan mablag'lar umumiy hajmi 2013 yilning oxiri holatiga 97,8 mlrd.dollarni tashkil etdi, undan 46,9 mlrd.dollari(48%) loyihaviy moliyalashtirishga, 49,8 mlrd.dollari savdoni moliyalashtirishga va 0,7 mlrd.dollari(1%) maxsus yordam uchun yo'naltirildi.³ Bank mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirish uchun bir nechta ishlarni amalga oshiradi. Xususan bank asosiy faoliyatidan tashqari o'z a'zolaridan zakot ham yig'adi. "Zakot"- bu kam ta'minlangan aholini moliyaviy qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan soliq bo'lib, uni

¹ <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-va-islom-taraqqiyot-banki-hamkorlik-va-rivozhlanish-istiqbollari-qandaj-bolishi-kerak>

² 2020-yil 2- sentyabrda ITB ning 46 yilligini nishonlashda prezident nutqidan <https://president.uz/oz/lists/view/4601>

³ O'zbekiston milliy ilmiy portali <https://nsp.gov.uz/outinst?id=13>

badavlat musulmonlar majburiy tartibda to'laydilar. Bunda odamlarni yaxshi ishlarga sarmoya qilishga undaydi. Bo'sh yotgan pul mablag'larini ishlatish va o'z boyligini ko'pchilik bilan bo'lishishga ko'mak beradi va jamiyat rivojiga hissa qo'shadi, bu axloqi bilan esa boshqa banklardan ajralib turadi. Bank zakotdan tushgan pullarni sarflashda faqatgina Qur'on o'qitish yoki madrasa ishlari bilan chegaralanib qolmaydi balki, qashshoq bo'lgan davlatlarga maktab, kasalxona va internet yetib bormagan chekka hududlarga internet olib borish va bolalar bilimni oshirish mamlakat ichki infratuzilmalarini rivojlantirish uchun sarflaydi.

Mamlakatimiz hududida islom banklarini rivojlantirish bir nechta ijobiy natijalar olib keladi. Misol uchun, aholining katta qismini Musulmonlar tashkil etadi va hozirda ularning qo'lida katta mablag'lar muzlab turibdi. Aholining diniy qarashlariga ko'ra tijorat banklariga omonatga pul qo'yishga qo'rqadi va uni shunchaki uyda yig'ishni afzal ko'rishadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatda naqd pul taqchilligini keltirib chiqarishi mumkin. Aholining bunday diniy qarashlari orqali o'zlariga ham zarar bo'lishi mumkin ya'ni mamlakatdagi inflatsiyani inobatga olib aholi qo'lidagi pul yillar o'tgan sari o'z qadr qiymatini yo'qotib borishi mumkin. Mamlakat esa bu ishni oldini olish maqsadida qo'shimcha majburiy to'lovlarni yig'ishi mumkin bu esa aholining ko'pincha keskin e'tirozlariga sabab bo'ladi. Bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida mamlakatimiz hududida Islom moliyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki unda hech qanday foizlar orqali hisob kitoblar amalga oshirilmaydi va aholining e'tiqodiga ham to'g'ri keladi bu orqali aholi o'z qo'lidagi ortiqcha bo'sh turgan pul mablag'larini bank orqali investitsiya qilib foydani esa dividend taqriqasida olishadi. Faqatgina bank tomonidan taqiqlanga faoliyat turlariga investitsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi bular spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish harajatlari uchun kreditla ajratmaydi bu ham aholi tomonidan e'tirof etilishi mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir etadi. Mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlikka yo'l ochiladi. Ayollarni ish bilan ta'minlash, ayollar biznesini rivojlantirish, mamlakatda bo'sh ish o'rinlarini oshirish va tadbirkorlardan olinadigan soliqlar orqali ham davlat iqtisodiyotini oshirishga yo'l ochib beradi. O'zbekiston hozirda bu bank tizimiga o'tishda hali birinchi bosqichda turibdi va bu bank tizimi iqtisodiyotga salbiy ta'sir qilishi mumkin degan qarashlar ham bo'lishi mumkin lekin Mamlakat bu bank tizimiga o'tgan ilk mamlakat emas. Shunday ekan, boshqa mamlakatlardan ijobiy va salbiy holatlarini bilgan holda ulardan andoza olib ish olib borsa bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Islom taraqqiyot banki Ozbekistonning asosiy 10ta kreditorlari qatorida turgani bejiz emas. Aholi o'rtasida islom moliyasi haqida bilimlarni berish va bu bank faoliyatini davlatimizda rivojlantirish kelgusida iqtisodiyotimizga ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu ishlarni ta'minlas uchun bakalavir

va magistir darajasidagi hodimlarni tayyorlash ularga buxgalteriya va IT bo'yicha bilimlarni berish va moliyaviy savodxonliklarini oshirish ham yaxshi natija beradi. Bu bank turlari faoliyatini rivojlantirish aholida bank tanlovini assortimentini oshirishga va banklar o'rtasidagi raqobatni oshirishga yordam beradi desak, mubog'ala bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vikepediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_Taraqqiyot_Banki
2. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-va-islom-taraqqiyot-banki-hamkorlik-va-rivozhlanish-istiqbollari-qandaj-bolishi-kerak>
3. 2020-yil 2- sentyabrda ITB ning 46 yilligini nishonlashda prezident nutqidan <https://president.uz/oz/lists/view/4601>
4. O'zbekiston milliy ilmiy portali <https://nsp.gov.uz/outinst?id=13>
5. Введение метода проектов в образовательный проект/ Методическое пособие, Самара, 2003.
6. Гулиянц С.Б. Метод проектов в работе со студентами
7. Голубчик В. М., Тверская Н.М. Человек и смерть поиски смысла (этические аспекты явления): Книга для учителя. — М.: Наука, 1994.
8. Гузеев В.В. Планирование результатов образования и образовательная технология. М.: Народное образование, 2000
9. Забелина Г.А. Применение метода проектов в обучении иностранному языку в школе и вузе.
10. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafaev Q.O. Oliy ta'limda masofaviy o'qitishni tashkil etish.-Qarshi, 2012y. 60 b.
11. Raximov O.D., Mustafaev Q.O., Zoirov N.I. Masofaviy ta'limning didaktik ta'minoti. -Qarshi,2012. -46 b.
12. Raximov O.D., Turg'unov O.M. va b. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari./Toshkent, "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2013.- 170b.
13. Raximov O.D., Murodov M.O., Ro'ziyev H.J. Ta'lim sifati va innovatsion texnologiyalar. Monografiya. // Toshkent, -Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2014. - 208 b.